

ATROF-MUHITING IFLOSLANISHIDA TRANSPORT VOSITALARINING TA’SIRI HAMDA ELEKTROMOBILLARNING RIVOJI VA ISTIQBOLLARI.

Eshmurodova Dilnura Dilmurod qizi

TDTTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

eshmurodovadilnura24@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda global muommoga aylanib kelayotgan ekologik muhitni avtomobillardan chiqayotgan zararli moddalar va chiqindilar tufayli og’ir bir ahvolga kelib qolishi va dunyo mamlakatlari bu muommoni bartaraf etish choralarini qidirishayotgani, ya’ni elektromobillarning salmog’ini oshirish uchun qo’yan talablari hamda ularning kelajakdagi o’rni va istiqboli haqida so’z yuritilgan. Bu muommo - aynan bir jamiyat yoki davlatning muommosi emas, balki jahon hamjamiyati orqali birgalikda yengilishi va xavfning ortmasligi uchun ko’rilishi kerak bo’lgan zarur chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi. Shuningdek, O’zbekistonda elektromobillarga bo’lgan munosabat hamda ular uchun quvvatlash stansiyalariga bo’lgan ehtiyoj ko’lami, shu bilan birgalikda oldimizga qo’yan rejali maqsadlarimiz xususida yoritiladi.

***Kalit so’zlar.** Avtomobillarning iqlimga ta’siri, atrof-muhitning termal ifloslanishi, zararli moddalar, ichki yonuv dvigatellari, elektromobillar, bojxona boji, aksiz solig’i, litiy, mis, grafit, quvvatlash stansiyalari, AGTKSH va AYOQSHlar, aksiyadorlik jamiyati.*

KIRISH.

Avtomobillarning iqlimga salbiy ta’siri xavfini kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishning dolzarbligi ham mintaqaviy, ham global darajada oshmoqda. **Transport** - yo’l majmuasi atrof-muhitni ifloslantiruvchi kuchli manba hisoblanadi. 35 million tonna zararli chiqindilarning 89 foizi avtomobil transporti va yo’l qurilishi korxonalarini chiqindilari hisoblanadi. Suv havzalarining ifloslanishida transportning roli katta. Bundan tashqari, transport shaharlardagi shovqinning asosiy manbalaridan biri bo’lib, atrof-muhitning termal ifloslanishiga sezilarli hissa qo’shadi. Jumladan, Rossiyada avtomobil transportidan chiqadigan chiqindilar yiliga 22 million tonnani tashkil qiladi. Ichki yonish dvigatellarining chiqindi gazlari 200 dan ortiq turdagi zararli moddalarni o’z ichiga oladi, masalan, kanserogen. Neft mahsulotlari, shinalar va tormoz prokladkalarining eskirgan mahsulotlari, quyma va changli yuklar, muzdan tozalash vositasi sifatida ishlatiladigan xloridlar yo’l chetlari va suv havzalarini ifloslantiradi. Bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasini mashinasiz tasavvur qilish

qiyin. Rivojlangan mamlakatlarda u nafaqat asosiy vosita, balki kundalik hayotning bir qismiga aylandi. Insonning harakat erkinligiga bo'lgan tabiiy istagi, ishlab chiqarish faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi funksiyalarning murakkablashishi va nihoyat, katta shaharlarda, shahar aglomeratsiyalarida hayotning o'zi bularning barchasi shaxsiy foydalanish uchun avtomobillar sonining ko'payishiga olib keladi. Biroq, so'nggi o'n yillikda faol amalga oshirila boshlangan elektromobillarga o'tish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijalari jamiyatimizga va atrof-muhitimizga ancha muvaffaqiyatli ravishda rivojlanmoqda degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Xalqaro energetika agentligining prognozlariga ko'ra, o'n yillik oxiri — 2030-yilga kelib elektromobillar soni kamida 145 millionga ortadi. Agar soha hukumatlar tomonidan qo'llab-quvvatlansa, 2030-yilga borib dunyodagi elektr transport vositalari soni 230 millionga etishi mumkin. Yevropa Ittifoqining EU Green Deal ekologik rejasiga ko'ra, Yevropa 2035-yilga borib butunlay "toza" avtomobillarga o'tishi kerak. Yevropa davlatlari transport vositalari uchun yanada qattiqroq, ichki yonuv dvigatellari bo'lgan avtomobillarni to'liq ta'qiqlashgacha, ekologik standartlarga amal qiladi. Misol uchun, Germaniya hukumati 2030-yilga kelib elektromobillarga bo'lgan talabni 15 millionga yetkazishni maqsad qilgan, buning uchun 1 milliongacha zaryadlash stansiyalarini ishga tushirish kerak bo'ladi. Taxminlarga ko'ra, Umuman olganda, o'n yillikning oxiriga kelib, butun dunyo bo'ylab avtomobil sotish bozorida elektromobillarning ulushi 30-40 foizga, 2040-yilga kelib esa kamida 50 foizga yetishi mumkin. Bu quvonarli foizlardir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda atmosfera havosiga jami zararli tashlamalarning **58 foizi** avtotransportlar hisobiga to'g'ri keladi. Bunda poytaxtning ulushi katta. Ekologiya va atrof-muhit musaffoligini asrab-avaylash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda atmosferaning ifloslanishida transport vositalarining salmog'i ortib bormoqda. Chunki avtomashinalar soni ortmoqda, qolaversa, samolyot, teplovoz, qishloq xo'jalik mashinalari va boshqalar juda katta miqdorda kislorodni sarflab, atmosferaga tarkibida 200 ga yaqin yaqin zaharli moddalar uchraydigan har xil gazlarni chiqarib, uni ifloslaydi. Mamlakatimizning 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan **Taraqqiyot strategiyasida** "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, jumladan, elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha ham maqsadlar belgilangan bo'lib, bu borada muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 10-oktyabr kuni elektromobil tarmog'ini rivojlantirish va xizmat ko'rsatish qamrovini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishar ekan, bu boradagi qator vazifalarni belgilab berdi. Xususan, elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni boshlash topshirildi. Elektromobil tannarxining 30 foizini akkumulyator, 10 foizini elektr o'tkazgichlar tashkil qilishi qayd etilgan holda, zaminimizdagi litiy, mis, grafit kabi xomashyo zaxiralaridan foydalanib, bunday qismlarni bemaolol o'zimizda ishlab

chiqarish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. shuningdek, mahalliy elektromobil xaridi uchun olingan kredit foizining bir qismi qoplab berilishi belgilandi. **Toshkent** va **Samarqand** shaharlaridan boshqa shaharlarda ham elektrobuslar harakatini yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi. Elektromobillarga xizmat ko'rsatish markazlari yo'qligi, quvvatlantirish stansiyalari yetarli emasligi ta'kidlanib, kelgusi ikki yilda joylarda 2 mingta quvvatlash stansiyalari, shu jumladan, xalqaro va magistral yo'llarda kamida 500 ta quvvatlash stansiyasini tashkil etish vazifasi qo'yildi. Bu stansiyalarga yer, mulk va foyda solig'idan imtiyoz qo'llaniladi. Tadbirkorlarga quvvatlash stansiyalari orqali elektrni erkin narxda sotish huquqi beriladi. Statistik tahlillarga ko'ra, dunyoda har 20 ta elektromobilga 1 ta quvvatlash stansiyasi to'g'ri keladi. Hozirda mamlakatimizda elektr quvvatlash stansiyalari soni 50 tani tashkil qilib, asosan Toshkent va Samarqand shaharlarida joylashgan. Bu degani 100 dona avtomobil uchun 1 dona stansiya to'g'ri keladi. O'zbekiston avtomobil bozorida elektromobillar ulushi ortishi xalqaro va magistral yo'llar atrofida quvvatlash stansiyalarini hamda ularga kafolatli servis xizmati ko'rsatish markazlari faoliyati ham yo'lga qo'yilishini talab etadi. Bu borada ikki mingta quvvatlash stansiyalari tashkil etilishi hamda ularga soliq imtiyozlari qo'llanilishi alohida e'tiborga molikdir. O'zbekistonga import qilinadigan elektr transport vositalari **bojxona boji, aksiz solig'i va avtotransport vositalaridan yig'iladigan to'lovlardan** ozod qilinadi. Bugungi kunda O'zbekiston bozorida 5000 donaga yaqin yangi energiya manbalarida xarakatlanuvchi avtomobillar (elektromobillar va gibrid avtomobillar) mavjud bo'lib, ularning aksariyati Xitoy Xalq Respublikasidan olib kelingan. Hozirgi kunda yurtimizda elektromobillar uchun quvvatlash stansiyalarining soni kam. Dunyo tajribasidan kelib chiqiladigan bo'lsa, quvvatlash stansiyalari sonini avtoturargohlarda, AGTKSH va AYOQSHlarda, yangi qurilayotgan binolar va umumiy foydalanish obyektlarida tashkil etish yo'li bilan ko'paytirish mumkin. Bundan tashqari, quvvatlantirish stansiyalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish yo'li bilan ham amalga oshirsa bo'ladi. Umuman, mazkur sohada davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan masalalar bo'yicha aksiyadorlik jamiyatimiz tomonidan tegishli ishlar olib boriladi. O'zbekiston Respublikasining "Transport to'g'risida"gi qonuniga binoan, "Transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini qo'llash, texnik jihatdan tartibga solish, ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish, soliq solish, tarif siyosatini, shu jumladan ijtimoiy ahamiyatga ega tashishlar uchun tarif siyosatini olib borish, transport to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash, kadrlar siyosatini olib borish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tartibga solish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari transport tashkilotlarining xo'jalik faoliyatiga aralashishga hamda ushbu tashkilotlarning ishlayotgan xodimlarini

boshqa ishlarga jalb etishga haqli emas, bundan tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan, favqulodda holat joriy etilgan hollar mustasno”, bundan ko’rinib turibdiki, transport vositalari bilan bo’g’liq masalalar davlat nazoratidadir. E’tirof etish joizki, bu kabi sa’y-harakatlar yurtimizda elektromobil tarmog’ini rivojlantirish va xizmat ko’rsatish qamrovini oshirishga, elektromobillarni ommalashtirishga xizmat qiladi. Pirovardida, atmosferaga avtomobillardan chiqadigan zaharli gaz miqdorining biroz bo’lsa-da kamayishiga zamin bo’ladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ekologiyaga zarar keltirayotgan avtomobillarni va ulardan chiqayotgan zararli tutun va moddalarni kamaytirish choralari, elektromobillarning ekologiyamizga ta’siri kamligi hamda dunyo jamiyati tomonidan qo’llab-quvvatlanmoqdaligini e’tirof etishimiz joizligi, kelajakdagi ekologiyamizni yanada yaxshilash uchun rejali maqsadlarimizni amalga oshirishimizni tizimli yo’lga qo’yishimiz zarurdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Transport to’g’risida”gi qonuni. 09.08.2021
2. Ochilov, A. M., Vohidov D. A. va Turg’unov D. S. (2022). Transport oqimi o’rganish uslubi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.12.2022 yildagi PQ-443-son. Elektromobillarni ishlab chiqarishni qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlar to’g’risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.10.2020 yildagi 638-son. Elektr qurilmalarni ekpluatatsiya qilishda texnika qoidalari tasdiqlash to’grisida.
5. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2013-yil, Ekologik nazorat to’g’risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 31.05.2023 yildagi PF-81-son. Ekologiya va atrof muhitni muhoofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida.